

O'ZBEK DORBOZLIK SAN'ATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA, USTOZ–SHOGIRD AN'ANASI VA MADANIY-MA'NAVIY MOHIYATI

Ibragimova Shahnozaxon Bahodirovna
Xalqaro Nordik universiteti, 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek dorbozlik san'atining tarixiy shakllanish bosqichlari, uning nomoddiy madaniy meros sifatidagi ahamiyati hamda ustoz–shogird an'anasi asosida rivojlanish jarayonlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Dorbozlik san'atining madaniy-falsafiy mohiyati, Asaka dorbozlik maktabining o'ziga xos jihatlari hamda Mahkam dorbozlar sulolasining davomchisi Xudaynazarov Bahodir Tursunbayevich faoliyati misolida dorbozlikning avlodlar davomiyligi tahlil qilinadi. Maqolada dorbozlik san'ati jasorat, mahorat va kuchli ruh timsoli sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: dorbozlik san'ati, nomoddiy madaniy meros, ustoz–shogird, Asaka maktabi, jonbozlik, dor.

Аннотация: В статье рассматриваются исторические этапы формирования узбекского искусства дарбозства, его значение как нематериального культурного наследия и развитие на основе традиции «устоз–шогирд». Анализируется философская сущность дарбозства, особенности Асакинской школы и деятельность Бахадыра Турсунбаевича Худойназарова как продолжателя династии Махкам дорбоз. Дарбозство представлено как искусство мужества, мастерства и духовной устойчивости.

Ключевые слова: искусство канатоходства, нематериальное культурное наследие, наставник–ученик, Асакинская школа, самоотверженность, канат.

Annotation: This article examines the historical development of Uzbek tightrope walking art (dorbozlik), its significance as intangible cultural heritage, and its transmission through the master–apprentice tradition. The philosophical essence of dorbozlik, the features of the Asaka school, and the activities of Bahodir Tursunbayevich Khudaynazarov as a representative of the Mahkam Dorboz dynasty are analyzed. Dorbozlik is interpreted as an art of courage, skill, and spiritual balance.

Keywords: the art of tightrope walking, intangible cultural heritage, master–apprentice tradition, Asaka school, self-sacrifice, tightrope.

KIRISH

Nomoddiy madaniy meros insoniyat tarixida xalqning ruhiy dunyosi, qadriyatlari va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim omillardan biridir. O'zbek xalqining qadimiy tomosha san'atlaridan biri bo'lgan dorbozlik san'ati ana shunday meros na'munalaridan





hisoblanadi. Dorbozlik — bu faqat tomoshabop sahna ko'rinishi emas, balki insonning jismoniy imkoniyatlari, ruhiy barqarorligi va hayotiy muvozanatini mujassam etgan murakkab san'at turidir.

Dor ustida harakatlanish insondan yuqori darajadagi jasorat, diqqat va iroda talab qiladi. Shu bois dorbozlik san'ati xalq orasida "jonbozlik" tushunchasi bilan bog'lanadi. Dor hayot yo'lini, dorboz esa ushbu yo'lda muvozanatni saqlay olgan insonni anglatadi. Ushbu ramziy ma'no dorbozlik san'atining chuqur falsafiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot tarixiy-madaniy, tavsifiy-tahliliy va biografik metodlar asosida olib borildi. Ilmiy adabiyotlar, madaniyatshunoslik tadqiqotlari hamda dorbozlar sulolalariga oid og'zaki manbalar tahlil qilindi. Tadqiqotda ustoz-shogird an'anasi asosida shakllangan dorbozlik maktablari, xususan Asaka dorbozlik maktabining o'rni alohida o'rganildi. Shuningdek, Xudaynazarov Bahodir Tursunbayevichning hayoti va ijodiy faoliyati individual misol sifatida tahlil qilindi.

Dorbozlik san'atining tarixiy asoslari. Yozma va og'zaki manbalarga ko'ra, dorbozlik san'ati Markaziy Osiyo hududida qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lib, uning tarixi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Dorbozlik taxminan 2,5 ming yil muqaddam Sharqda paydo bo'lgan, so'ng butun dunyoga tarqalgan. Tarix qatlariga nazar tashlansa, dor o'yinlari – simbozlik yoki simdor – O'zbekiston hududida shunchaki ko'ngilochar mashg'ulot emas, balki katta ijtimoiy hodisa bo'lganini ko'ramiz. Manbalarning guvohlik berishicha, hatto Sohibqiron Amir Temur saroyida ham xorijiy elchilarni hayratda qoldiruvchi ajoyib dor o'yinlari namoyish etilgan. Bu fakt dorbozlikning o'sha davrdayoq yuksak maqomga ega bo'lganini, davlat tadbirlari darajasiga ko'tarilganini anglatadi. O'tmishda bu san'at turi O'zbekistonning deyarli barcha yirik shaharlarida ommalashgan bo'lsa-da, uning haqiqiy "akademiyasi" sifatida Quva va Asaka shaharlari tilga olinadi. Xususan, vodiy dorbozlarining dovrug'i faqat Markaziy Osiyo bilan cheklanib qolmagan. XVIII – XIX asrlarga oid ma'lumotlarga ko'ra, o'zbek dorbozlari o'z mahoratlarini Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eron va keyinchalik Rossiya hududlarida ham namoyish etib, o'zbek nomini dunyoga tanitganlar.

Dorbozlik tomoshasi faqatgina arqon ustidagi yurishdan iborat bo'lgan, deb o'ylash xato. Bu – yaxlit, mukammal ssenariyga ega bo'lgan haqiqiy teatrlashgan bayram edi. Dor ostida polvonlarning kuch sinashishi, raqqoslarning jozibali harakatlari, qiziqchi-masharabozlar va askiyachilarning xandalari tomoshabinni bir zum ham zerikishga qo'ymagan. Karnay-surnay sadolari va doira usullari jo'rligida ayiq, ilon, maymun, ot va echki kabi o'rgatilgan hayvonlar ishtirokidagi chiqishlar namoyish etilgan. An'anaviy sirk janrlaridan hisoblangan yog'ochoyoq, nayrangbozlik (illyuziya), besuyak (plastika) va muallaqchilik kabi elementlar dor o'yinlarining ajralmas qismiga aylanib, uning ta'sir





kuchini oshirgan. Bunday tomoshalar bozor maydonlarida, sayillarda, Navro'z bayramlari va Registon kabi yirik ochiq maydonlarda minglab odamlarni o'ziga jalb etgan.

Dorbozlik dastlab past qurilgan, mashqlari ham sodda bo'lgan. Davr o'tishi bilan dor toбора balandroq qurilib, o'yinlari murakkablasha borgan. Dorbozlik o'yinlari avval ochiq maydonlarda, XVIII asr oxiridan esa sirk sahnasida namoyish etiladigan bo'ldi va sirk san'atining ajralmas qismiga aylandi, yangi taraqqiyot davrini boshladi.

Dorbozlik dastlab xalq bayramlari, marosimlar va ommaviy yig'inlarda namoyon bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan ushbu san'at turi o'ziga xos texnika, uslub va an'analarga ega bo'ldi.

Dorbozlar orasida keng tarqalgan rivoyatlarga ko'ra, dorga birinchi bo'lib chiqqan zot Payg'ambarimizning kuyovi Hazrati Ali (r.a.) bo'lgan. Bu e'tiqod dorbozlik san'atining faqat jismoniy emas, balki ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikni ham talab etishini anglatadi.

Asaka dorbozlik maktabi va sulolaviy davomiylik. Farg'ona vodiysi dorbozlik san'atining yirik markazlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Asaka hududida shakllangan dorbozlik maktabi o'zining murakkab texnik elementlari, intizom va kuchli ruhiy tayyorgarligi bilan ajralib turadi. Ushbu maktab vakillari orasida Mahkam dorboz nomi bilan tanilgan sulola alohida e'tirof etiladi. Ayni paytda O'zbekistonda ko'plab oilaviy dorbozlik guruhlari faoliyat yuritmoqda. Ular orasida Toshkanboyevlar, Andijonlik Mahkam dorboz va uning avlodlari, Maxmud Xasanov, Bahodir Xudaynazarov, Yunusali G'oziyev va O'ktam Yunusov, Farg'onalik Tursunali Madaminov, Toshkentlik Anvar Mo'ydinov, Sirdaryolik Sherali Abdullayev hamda Bahodir Dadajonov kabi sulola vakillari alohida ajralib turadi. Quvonarlisi shundaki, bu guruhlarning asosiy tarkibini yosh yigit-qizlar tashkil etadi. Ular "ustoz-shogird" an'anasiga sodiq qolgan holda oilaviy muhitda, shuningdek, Respublika estrada va sirk kollejida professional ta'lim olish orqali o'z mahoratlarini oshirmoqdalar.

Respublika miqyosida o'tkazilayotgan turli ko'rik-tanlovlar, festivallar, shuningdek, Navro'z va Mustaqillik bayramlaridagi chiqishlar bu san'atning xalq hayotidagi o'rni naqadar muhimligini ko'rsatadi. 25 metr balandlikdagi qil arqon ustida muvozanat saqlab turgan dorboz timsolida o'zbek xalqining o'z tarixiga, qadriyatlariga bo'lgan hurmati va kelajakka intilishidagi qat'iyat mujassamdir.

Mahkam dorbozlar sulolasi bir necha avlod davomida dorbozlik san'atini saqlab, rivojlantirib kelgan. Ushbu sulolaning munosib davomchisi Xudaynazarov Bahodir Tursunbayevich bo'lib, u uch yoshidan boshlab dorbozlik san'ati bilan shug'ullanib kelmoqda. U ustozlarda dorboz sifatida ota-bobolaridan qolgan kasbni davom ettirib, dorbozlik san'atiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda va farzandlariga ham dorbozlik san'atini o'rgatib bormoqda.





Zamonaviy dorbozlik va transformatsiya jarayonlari. Bugungi kunda dorbozlik san'ati an'anaviy shakllarini saqlagan holda zamonaviy sirk elementlari bilan boyib bormoqda. Xudaynazarov Bahodir Tursunbayevich tomonidan asos solingan "Samo yulduzlari" oilaviy dorbozlik va sirk guruhi ushbu jarayonning yorqin namunasi hisoblanadi. Ushbu jamoa orqali dorbozlik san'ati yangi avlodga yetkazilmoqda.

Shuningdek, Xudaynazarovlar sulolasining tog'alari — Xasanov Mahmud Mahkamovich va uning izdoshlari ham dor san'ati rivojiga munosib hissa qo'shib, milliy kinomatografiyada dor o'yinlari bilan ishtirok etganlar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, dorbozlik san'ati o'zbek xalqining bebaho nomoddiy madaniy merosi bo'lib, u jasorat, mahorat va kuchli ruh timsolidir. Ustoz-shogird an'anasi asosida avloddan avlodga o'tib kelayotgan ushbu san'at turi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mahkam dorboz, Mahmud Xasanov, Bahodir Xudaynazarov, Akmal Mo'ydinov kabi bir qancha fidoyi dorbozlar faoliyati dorbozlik san'atining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

1997 yildan buyon Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi tomonidan muntazam o'tkazib kelinayotgan milliy dorbozlik jamoalari ishtirokidagi "Maydon tomoshalari san'ati" respublika festivali o'zbek xalq tomosha san'ati va milliy o'yinlarini tiklash, dorbozlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda keng targ'ib etish, shuningdek, yoshlarning boy ma'naviy merosimiz, xalq o'yinlariga bo'lgan qiziqishi va hurmatini oshirishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Karimov. O'zbek xalq tomosha san'atlari tarixi. – T., 2018.
2. M.Murodova. Folklor va etnografiya. –T., 2008.
3. M.Umarov. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi – T., 2007.

